


## 16. 3 ga bo'linish alomati

Yondosh mavzu:  
O'zbekistondagi cho'llar

Raqamlar yig'indisi,  
qo'shish va ayirishning  
xossalari



1. Faqat qiymati juft bo'lgan ifodalarni tanlang. Ushbu ifodalar yonidagi rasmlarda qanday umumiylik bor?



$$27 \cdot (28 + 18)$$



$$456 : (255 - 179)$$



$$87 \cdot 13 - 268$$



$$2\,033 - 43 \cdot 47$$



$$2\,655 : 5 \cdot 7$$



$$(6\,018 - 246) : 12$$



2. Daftaringizga Venn diagrammasini chizing va unga 23, 36, 12, 42, 50, 60, 96 sonlarini qo'ying. Nimani payqadingiz?

Barcha sonlar

3 ga  
bo'linadigan  
sonlar

Raqamlari  
yig'indisi 3 ga  
bo'linadigan  
sonlar



### 3 ga bo'linish alomati

Agar sonning raqamlari yig'indisi 3 ga bo'linsa,  
u holda sonning o'zi ham 3 ga bo'linadi.

## 16. 3 ga bo'linish alomati



3. Misol keltiring: taklif qilingan uchta sonning har bir hadi uchun 3 ga bo'linadiganini tanlang. Hosil bo'lgan ifodaning qiymatini toping.

$$(\quad - \quad \cdot \quad) : \quad + \quad : \quad$$


|     |     |     |     |    |     |     |     |
|-----|-----|-----|-----|----|-----|-----|-----|
| 238 | 127 | 419 | 104 | 17 | 131 | 100 | 410 |
| 754 | 266 | 652 | 102 | 14 | 242 | 110 | 170 |
| 541 | 904 | 273 | 202 | 12 | 203 | 300 | 150 |



4. Karvon Qizilqum cho'lidan 664 km yo'l bosib o'tishi kerak. Karvon birinchi kun 88 km, ikkinchi kun 96 km, qolgan masofada esa har kuni 60 km dan yo'l bosib o'tishdi. Cho'lni bosib o'tish uchun necha kun kerak bo'lgan?



5. 7 ga; 5 ga; 9 ga karrali bo'lgan sonlar zanjiridan o'ting. Qanday so'zlar hosil bo'ldi? Ular nimani anglatadi?



6. Qavslarni shunday joylashtiringki, natijada to'g'ri tengliklar hosil bo'lsin.

$$768 - 108 + 162 = 822$$

$$893 - 179 + 103 = 611$$



7. Tenglamalarni yeching. Javoblarni o'sish tartibida joylashtiring va cho'lga ekskursiyaga olib boradigan mashina raqamini bilib oling.

$$966 : (133 + x) = 7$$

$$y \cdot 90 - (423 + 347) = 40$$

$$911 - (z + 601) = 317$$



## 16. 3 ga bo'linish alomati



8. Olimlar birinchi podada 28 ta sayg'oqni, ikkinchisida 14 ta, uchinchisida birinchi va ikkinchi podada birgalikda qancha bo'lsa, shundan ikki marta kam sayg'oqni sanadilar. Olimlar jami qancha sayg'oqni sanaganlar?



9. Hisoblang va metr, detsimetr va santimetrlarda ifodalang.

- a)  $(6 \text{ dm} + 3 \text{ m } 72 \text{ cm}) : 3 - 45 \text{ cm} \cdot 3$
- b)  $(907 \text{ cm} - 1 \text{ m } 6 \text{ dm } 9 \text{ cm}) : 9 + 1 \text{ m } 93 \text{ cm} \cdot 5$
- d)  $(5 \text{ m } 6 \text{ dm } 42 \text{ cm} + 685 \text{ cm}) \cdot (481 - 462)$



10. Bir necha ishtirokchi tuya safariga yozildi. Karvonda har bir ishtirokchiga bitta tuya ajratiladi. Ishtirokchilarning uchdan bir qismi sayohatdan voz kechdi, natijada oyoqlarning umumiy soni 24 taga kamaydi. Karvonda nechta tuya bor edi? Nechta qoldi?



11. Faqat tarkibidagi barcha sonlar 3 ga bo'linadigan ifodalarni hisoblang.

- a)  $673 \cdot 723 + 141 \cdot (8\,562 - 1\,843)$
- b)  $80\,100 : 9 + (64\,287 - 21\,876) \cdot 6$
- d)  $24 \cdot (39\,834 - 15\,480 : (27 + 33)) \cdot 111 - 214\,824$
- e)  $8\,886 + (143 + 219) \cdot 6 - 12\,690 : 54$



12. Biologlar cho'lda 24 ta kuzatuvchi kamera o'rnatishdi. Kameralar uchdan bir qismining har biri 1 480 tadan, qolganlarining har biri esa 2 064 tadan fotosurat olgan. Jami qancha fotosurat olingan?

